

Buxoro viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar*
- II. Doimiy aholi soni*
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar*
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar*
- V. Aholi migratsiyasi*
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari*

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-iyul holatiga Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni **2 089,4** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,5** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **19,1** ming nafarni, vafot etganlar **4,5** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **14,6** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **6** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **69** kishini, qayd etilgan nikohlar **5,7** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,2** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni**2 089,4** *ming kishi***Tug'ilganlar soni****19,1** *ming kishi***Vafot etganlar soni****4,5** *ming kishi***Xorijdan ko'chib kelganlar****6** *kishi***Xorijga ko'chib ketganlar****69** *kishi***Nikohlar soni****5,7** *ming birlik***Nikohdan ajralishlar soni****1,2** *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Buxoro viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra **2 089,4** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **31,7** ming kishiga yoki **1,5** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **769,9** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,8%**), qishloq joylarda esa **1 319,5** ming kishi (**63,2%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 041,7** ming kishini (**49,9%**), erkaklar esa **1 047,7** ming kishini (**50,1%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 057,7	2 089,4	101,5
Buxoro sh.	297,4	302,4	101,7
Kogon sh.	65,1	65,8	101,1
<i>viloyatlar:</i>			
Olot	105,0	106,5	101,4
Buxoro	179,8	183,1	101,8
Vobkent	149,8	152,4	101,7
G'ijduvon	324,8	329,2	101,4
Kogon	85,3	87,0	102,0
Qorako'l	172,8	175,2	101,4
Qorovulbozor	20,2	20,5	101,3
Peshku	131,9	134,3	101,8
Romitan	152,0	154,2	101,4
Jondor	186,6	189,8	101,7
Shofirkon	187,0	189,0	101,1

Buxoro viloyatida 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **51,9** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,7** kishiga ortgan (2024-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **51,2** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **19,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **18,5** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,7** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4,5** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** promillega ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **19,1** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **9,8** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,3%**), qiz bolalar soni **9,3** ming kishini (**48,7%**) va shahar joylarida **7,1** ming kishini (**37,2%**), qishloq joylarida **12,0** ming kishini (**62,8%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **4,5** ming kishini, shundan erkaklar **2,4** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **53,3%**), ayollar **2,1** ming kishini (**46,7%**) va shahar joylarida **1,8** ming kishini (**40,0%**), qishloq joylarida **2,7** ming kishini (**60,0%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **5,7** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,5** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1,2** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **5,7** ming birlikni, shundan shahar joylarida **2,4** ming birlikni (**42,1%**), qishloq joylarida **3,3** ming birlikni (**57,9%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **1,2** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,7** ming birlikni (**58,3%**), qishloq joylarida **0,5** ming birlikni (**41,7%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **4 910** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **4 904** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **6** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **7 170** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **7 101** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **69** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Buxoro viloyati	4 910	4 904	6	7 170	7 101	69
Buxoro sh.	1 691	1 688	3	1 618	1 612	6
Kogon sh.	317	317	0	327	327	0
<i>viloyatlar:</i>						
Olot	85	85	0	240	240	0
Buxoro	737	737	0	656	656	0
Vobkent	237	237	0	407	407	0
G'ijduvon	302	302	0	1 182	1 172	10
Kogon	449	449	1	416	416	0
Qorako'l	163	163	1	498	498	0
Qorovulbozor	212	212	0	157	132	25
Peshku	118	118	1	200	196	4
Romitan	132	132	0	328	304	24
Jondor	167	167	0	379	379	0
Shofirkon	300	300	0	762	762	0

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi	Sh. Musayeva 65 223-83-37 (8070)	Buxoro viloyati Buxoro shahri S.Ayni ko'chasi 3-uy